JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 6, July- August 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA AXLOQIY MASALALAR TALQINI

Aziza Rahmatova,
ToshDO'TAU 3-kurs talabasi
Rahmatovaaziza60@gmail.com +99894 457 30 10

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received:23.08.2026
Revised: 24.08.2026
Accepted:25.08.2026

KALIT SO'ZLAR:
Alisher Navoiy, qit'a, axloqiy-ta'limiy g'oyalar, tavakkul, komil inson, xushomadgo'ylik.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Alisher Navoiy qit'alarining badiiy xususiyatlari hamda ularda aks etgan insoniy fazilatlar, illatlar, hamda komil inson masalasi tahlil qilinadi. Shoirning qarashlari qit'alarga tayangan holda sharhlanadi, bugungi kun uchun dolzarbligi ko'rsatib beriladi.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyoti va ma'naviyati xazinasini serqirra ijodi namunalari bilan boyitdi, lirik ijod orqali "novatorlik" ko'rsatdi. O'zigacha bo'lgan she'riyat an'analariga yangilik kirita oldi.

O'zbek she'riyatida uning g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy va muammolari juda yuqori mavqe qozondi. Qit'a janrining ham bu sirada alohida o'rni bo'lib, u shoirning ijtimoiy-falsafiy mushohadalarini lo'nda va ta'sirchan ifodalash uchun asosiy vosita vazifasini o'tagan. "Qit'a" arabcha so'z bo'lib, bo'lak, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Uning mavzuyi, hajmi, vazni qat'iy belgilanmaganligi sababli barcha mavzularda ijod qilishga qulay hisoblanadi. Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek, "qit'ada ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, axloqiy-ta'limiy masalalar ifodalangan, shoirlar hayotiy-realistik qarashlari, davr va zamonga munosabatlarini aks ettirganlar"[166]. Qit'a kichik lirik janr bo'lib, ikki va undan ortiq baytdan iborat bo'ladi. "Qit'alar vazn jihatidan ham, odatda rang-barang bo'ladi. Undagi baytlarning qofiyalanish tizimi ko'proq g'azalning matladan keyingi qismini eslatadi, ya'ni b-a, v-a, g-a… tartibida ketadi "[167].

O'zbek adabiyotida Navoiygacha ham qit'a janrida ijod qilgan ijodkorlar bo'lishiga qaramay qit'a aynan Navoiy ijodida o'zining "haddi a'lo" siga chiqdi.

[166] Haqqul I. Kamol et kasbkim… . – Toshkent: Cho'lpon, 1991. – B. 5.
[167] Xayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015 – B. 62.

Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining o‘zida 210 ta qit‘a mavjud. Shuningdek, “Badoyi ul-bidoya” asarida 43 ta, “Mahbub ul-qulub” da 21 ta, “Muhokamat ul-lug‘atayn” da 2 ta, “Devoni Foniy”da esa bu janrning 64 ta namunasini uchratishimiz mumkin. Bu raqamlarning o‘ziyoq janrning shoir ijodida naqadar mustahkam o‘rin egallaganini tasdiqlaydi. Quyida Navoiy qit‘alaridan axloqiy-ta‘limiy ruhdagi ayrim namunalarni tahlil etishga harakat qilamiz:

Tavakkulni ulkim qo‘yub xotirig‘a
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.
Nasibi aning bir ayoq osh erur, bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi,
Birovkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga kerakdur qazonning qarosi.[168]

Kimki — tavakkulni Allohga suyanishni qo‘yib, ko‘ngliga shoh oldida qulluq qilish istagi tushsa, bunday odamga eng ko‘pi bilan bir kosa osh nasib etadi, xolos. Holbuki, unday insonlarning muddaosi Qorunning xazinasi bo‘ladi. Kimki bir kosa osh uchun, jumladan, boylik, nafs va arzimas manfaatlar uchun birovlarga laganbardorlik qilsa, o‘zligidan kechib qul darajasiga tushsa, u odamning yuziga qozonning qorasi surkalgani yaxshi. Shoir tashbih san’ati orqali o‘z qadrini sotgan kimsaning yuzsizligini keskin qoralaydi. U qilgan orsizligi va ta‘magirligi uchun shunday sharmandali holga tushishga mahkum, deyilmoqda qit‘ada. Bugungi kunda ham arzimas manfaat uchun mansabdorlar eshigida or-nomusini sotishga ham tayyor bo‘lgan insonlar uchraydi. Bu kabi insonlar qit‘adan ko‘rinib turganidek Navoiy davrida ham talaygina bo‘lgan. Bunday kimsalar Allohdan keladigan rizqiga shukr qilmay, qul bo‘lishga ham rozi. Rizq faqat Allohdandir. Kimki Allohdan yuz o‘girib, rizqni boshqalardan kutsa, o‘zini xor qilgan bo‘ladi. Navoiyning aqidasicha undan ko‘ra tavakkulni qo‘ldan bermay, birovning ta‘na-yu malomatli ovqatidan hazar qilmoq lozim.

Alisher Navoiyning ushbu qarashi oldinroq yashab ijod etgan adiblar asarlarida ham uchraydi. Xuddi shu mazmunda Sa‘diyning “Guliston”ida bir hikoyat keltirilgan: “Eshitdimki, bir darvesh faqirlik o‘tida kuyar, jandasidagi yamoq ustiga yamoq uyar va o‘z ko‘ngliga tasalli berish uchun ushbu baytni takrorlardi:

Biz rozimiz bo‘lsa agar oddiy chakmon, qotgan non,
Bizga mehnat zahmatidan o‘zga minnati yomon.[169]

Bir odam unga dedi: “Nega bu yerda o‘tiribsan, shu shaharda yashaydigan falonchi nihoyatda lutf-u karamli va saxovatlidir, u darveshlar xizmatiga bel bog‘lagan va ularning dilini ovlashga o‘zini chog‘lagandir. Agar u sening shu holingdan xabar topsa, zo‘r mamnuniyat bilan lutf-u ehson qiladi”. Darvesh dedi: “Jim bo‘l, ehson so‘rab birovga

[168] Alisher Navoiy. Badoyi ul-bidoya. MAT. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 629.
[169] Sa‘diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 79.

xor bo‘lgandan ko‘ra, muhtojlik, ochlikda o‘lgan yaxshidir”[170]. Bu hikoyatda ham mansab va boylik singari o‘tkinchi hoy-havaslarga aldanib umrni zoye o‘kazmaslik lozim, degan o‘git ilgari surilgan.

Navoiy ijodida shu singari tarbiyaviy-axloqiy mavzudagi qit‘alar ko‘p uchraydi.

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar - yaxshiroq ushalsa beli.
Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur,
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.[171]

Ushbu qit‘ani yuqoridagi qit‘aning mazmuniy davomi deyish mumkin. Kim Haqni qo‘yib, odamlarning, yaratilmish maxluqlarning xizmatiga kirishsa, ularga yon bosib, ularga yoqishga harakat qilsa, unday odamning beli singani yaxshi. Bunday odamlar Allohni qo‘yib bandalariga qo‘l qovushtirib, ta‘zim qilib, sadoqat bildirishga shay turadigan kimsalardir. Shu bois uning yelkasi chiqsa, qo‘llari sinsa yaxshi. Chunki ular o‘z haqqi, or-nomusidan kechib bo‘lsa ham mansabdor yoki boyga yoqish uchun urinadi. Yaltoqlanish, xushomad qilishni boshlashsa, nafaslari bo‘g‘ilib, tillari kesilsa edi. Navoiy bu qit‘ada Allohni unutgan xushomadgo‘y, mansabparast, boshqalarga qul bo‘lib yashashga tayyor, or-nomusini qurbon qiladigan odamlarni tanqid qiladi. Odamlarning boyga, mansabdorga yoqish uchun o‘z qadrini pastga urishlarini qattiq qoralaydi. Navoiy fikricha, xushomad — insonni qul darajasiga tushiradigan illat. Navoiy inson o‘zidek bo‘lgan insondan emas, faqat Allohdan madad kutmog‘i lozim, degan qarashni ilgari suradi. Zero, “Taloq” surasining 3-oyatida “Kim Allohga tavakkul qilsa, bas, U zotning o‘zi kifoyadir. Albatta, Alloh o‘z ishini yetkazuvchidir. Batahqiq, Alloh har bir narsaga o‘lchov qilib qo‘ygandir”, deb marhamat qilingan. Mazkur qit‘ada Navoiy xushomadgo‘ylik bilan bandaga zorlanishni tanqid qiladi. Uning fikricha, nimaiki tilasak, faqat Allohdan tilashimiz, undangina madad kutishimiz kerak.

Shu mazmun ifodasini Sa‘diyning “Bo‘ston” asarida ham ko‘rishimiz mumkin: “Tama‘gir kishi tongda aylab xirom, borib Xeva xoniga bermish salom. Egilmish - bukilmish xushomad qilib, Yuzin yerga surtmish itoat bilib. Dedi o‘g‘li unga: aziz otajon, Nedir bu, tushunmasman, etgil bayon, O‘zing der eding - qibla bizga Hijoz, qilursan nechun bu tamonga namoz? Qanoat bilan ko‘kka yetgay boshing, Tama‘ birla ko‘krakka tushgay boshing. Bir arpaga sotma sharaf gavharin, Tama‘ to‘kkusi humatingning barin. Tama‘ga bo‘yinsunmasa har kishi, u qul ermas, ozod o‘tar turmushi. Tama‘ jamiyatdan chiqorgay seni, uni haydagil, u chiqormay seni”[172].

[170] Sa‘diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 79.
[171] Alisher Navoiy. Badoyi ul-bidoya. MAT. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 629.
[172] Sa‘diy Sheroziy. Bo‘ston. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. – B. 94 .

Alisher Navoiy mazkur qit‘alari orqali xushomadgo‘ylik, ta‘magirlik balosiga yo‘liqqan kimsalarni va ularning qilmishlarini qattiq tanqid qilgan, e‘tiborli tomoni bu nasihatlar bugungi kun uchun ham birday kerakli. Navoiy o‘z asarlarida komil inson tasvirini chizishga intiladi. Shu jumladan, ushbu mashhur "Kamol et kasbkim" nomli qit‘ada ham shu holni kuzatishimiz mumkin:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Sanga farz o‘lmagay g‘amnok chiqmak.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmak.[173]

Inson zoti dunyoga kelibdiki, o‘zligini anglash, sayqallash ustida ishlaydi. Navoiy ham bu "olam uyi" da kamolotga erishishimiz zarurligi, g‘am-anduhda olamdan o‘tish farz emasligini aytadi. Jahondan "notamom" o‘tib ketish xuddi hammomga kirib poklanmay chiqishga qiyoslanadi. Bu tashbih orqali shoir komillik — ruhiy, axloqiy va aqliy poklikning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Komillik darajasiga yetish uchun nafaqat sirtni, balki siyratni ham go‘zal qilmoq lozim. Ham ma‘nan, ham jismonan yetuk insongina komillik darajasiga ko‘tarilishi mumkin.

Xulosa:

Alisher Navoiy qit‘alarida ilgari surilgan g‘oyalar — tavakkulning ulug‘ligi, rizqning Yaratgandan ekani, bandaga qul bo‘lib yashashning pastkashlik ekani, komillik sari intilishning zarurligi — zamonlar osha o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan umumbashariy dolzarb g‘oyalardir. Ular o‘z davrining ijtimoiy muammolariga yechim bera olish bilan birga kelajak avlodlar uchun ham ibratli bo‘la oladi. Shunday ekan, Navoiyning qit‘alari bugungi kunda ham har bir insonning ma‘naviy kamolotida yo‘lchi yulduz singari yo‘lni yoritadi. Insonni poklikka, matonatga, qadr-qimmatini asrashga, eng muhimi, haqiqiy komillikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Badoyi ul-bidoya. MAT. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Navoiy asarlar tilining izohli lug‘ati.4 tomlik. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Haqqul I. Kamol et kasbkim… . – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.
4. Xayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
5. Sa‘diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.
6. Sa‘diy Sheroziy. Bo‘ston. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
7. Karimov Obidjon. Mumtoz she‘riyat janrlari. – Namangan: Namangan, 2015.

[173] Alisher Navoiy. Badoyi ul-bidoya. MAT. 20 tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 629.